

**KORRUPSIYA YOSHLAR KO'ZIDA**

Soibjonova Mo'tabarxon Ozodbek qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqola korrupsiyani asosi va bunga yoshlarning munosabati mavzusiga bag'ishlangan

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, illat, omil

**Korrupsiya** (lotincha: *corrumpō* — aynish, poraga sotilish) — mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi[1]. Bundan kelib chiqadiki, xoh u katta, xoh kichik mansab egasi bo'lsin, u o'ziga berilgan vakolatlardan foydalangan holda davlat va xalq oldidagi mas'uliyatini suiiste'mol qilgan, qonunchilik, jumladan, vijdon, insof kabi chin insoniy fazilatlarga zid ravishda foydalanishi tushuniladi. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazishi bilan birga inson huquqlari buzulishiga bozor, iqtisodiyot rivoji sustlashishiga, insonlar xavfsizligiga tahdid soladigan jinoyatchilik kabi manfur hodisalarning ildiz otib, gullashiga keng imkon yaratib beradi. Olmaning sirtiga kasallik tegsa, bunga qarshi chora ko'riladi. Davlatni bir olma deb olsak, korrupsiya uni ichidan yemiruvchi, yeyishga yaroqsiz qiluvchi bir omil sanaladi. Buni bir qarashda bilib bo'lmaydi. Omil sababchilari qurt va boshqa zararkuranda hasharotlar, ya'ni poraxo'rlar. "Qurt ham shirin meva ichida bo'ladi", - deganlaridek poraxo'rlar ham pora bor yerda rivojlanadi.

Pora beruvchi+pora oluvchi(poraxo'r)=korrupsiya(poraxo'rlik). Bu formulaga tayanar ekanmiz, korrupsiya ikki katta asosdan tashkil topganiga guvoh bo'lamiz. Ular bir birini to'ldirgan holda poraxo'rlik atalmish, mustaqil davlatning ichki hayotini barbod qila oladigan yashirin, ammo kuchli bir birlikni hosil qiladi. "Bermasang, qaydan olsin?!", -deymiz-ku, "busiz ishimizning bitmasligi" dan qo'rqib katta bir falokatning bir qatnashchisi bo'lib qolganimizni o'zimiz anglayabmizmi?!

Korrupsiya paydo bo'lishi omillaridan biri, aholi huquqiy savodxonligining pastligi, ya'ni aholi qonunlarni bilmagani yoxud tushunmasligi mansabdor shaxsga qonunlardan o'zining manfaati yo'lida foydalanishga imkoniyat yaratyapti. Shu jumladan, aytish kerakki, korrupsiya paydo bo'lishining yana bir omilning asosi ham yana aholi qatlamiga borib taqaladi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat shu mamlakat xalqi shuuriga to'liq singishmay yoxud oldinga qo'yilgan maqsadga erishishdagi mashaqqatlarni yengib o'tish o'rniga g'ayrioddiy, qing'ir yo'llar bilan o'tishga bo'lgan harakat, nafsiga qul bo'lgan boshqa bir inson bilan tuzilgan "bitim" natijasida paydo bo'ladi. Vaholanki, ikki individ orasidagi ikki tarafga ham manfaatli

hisoblangan "sulh"ning, xalq, davlat manfaatlaridan ustun bo'lishi, davlatning har taraflama, har bir sohada taraqqiy etib, rivojlanishi uchun katta va kutilmagan to'siqlarni ro'baro etyapti.

Qozi besh bodiring yesa gar pora,

Yuz poliz hukmiga topadi chora.

Sa'diy Sheroziy[2]

Katta-katta muammolar, kichik ko'ngilsizliklardan boshlanadi. Yomon harakter, yomon muhit singari yomon illatlar ham insonni tez qabohatga sudraydi. Nafsni ko'yiga bir kirdingmi, tamom! U insonni botqoqqa botirsa botiradiki, yaxshilikka eltmaydi. Shuning uchun korrupsiya ko'chasidan o'tish tugul, unga qiyo boqmoq ham zarar.

Xulosa sifatida shularni ta'kidlash joizki, qars doim ikki qo'ldan chiqadi. Yomon yo'lga qo'yilgan bir qadam-insoniylikning halokati. Shuningdek yurt rivoji uchun, millat tinchligi uchun korrupsiyaga qarshi kurashuvchi yosh-u qari o'z vijdonini shakllantirishi, o'z ruhini to'g'ri tarbiya etishi, nafsini jilovlashi lozim. Biz birlashsak, har kim o'zi uchun o'zi javob bersa, biz, albatta, korrupsiya ildiziga bolta uramiz. Biz uni to'xtashish emas, tamomila tugatish uchun yo'lga tushdik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>

2. <https://Islom.ziyouz.com>